O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 7 - sentabr 577-7-107-Q/22 Samarqand shahar hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarning ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olish to‘g‘risida”gi 18-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Samarqand shahar filiali mazkur qaror bilan tasdiqlangan “Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi”ga muvofiq ish yuritilishini ta’minlasin.

3. Shahar hokimligi Axborot xizmati (A.Po‘latov) mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari R.Olimov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **F.Umarov**

Samarqand shahar hokimining
2022 yil 7 sentabrdagi
577-7-107-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi

1. Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildi uy yoki turar joy foydalanishga qabul qilinib olinayotganda yoxud uy va turar-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar-joylarni vaqti-vaqti bilan rejali xatlashlar o‘tkazish yo‘li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko‘rsatkichlari o‘zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

2. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar, (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar, internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va va boshqa maxsus maqsadli uylar)dan iborat bo‘lgan fond.

4. Uy-joy fondini hisobga olish texnik hujjatlar yig‘ma jildi, ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari, inventar hujjatlar yig‘ma jildida shakllangan ro‘yxatdan o‘tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizatsiya hujjatlari shahar davlat kadastrlari palatasi shahar filiali arxivida saqlanadi.

5. Uy va turar-joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari davlat kadastrlari palatasi Samarqand shahar filialiga ariza bilan murojaat qiladi.

6. Arizalar davlat kadastrlari palatasi shahar filiali tomonidan qabul qilib olinadi va shu kunning o‘zida arizalar reestriga qayd qilinadi.

7. Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy va

turar-joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun davlat kadastrlari palatasi shahar filialiga telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat ko‘rinishida ariza berishlari mumkin.

Ushbu nusxalardan iborat kadastr yig‘ma jildining har bir varag‘iga davlat kadastrlari palatasi shahar filiali rahbari tomonidan asliga to‘g‘ri degan yozuv kiritiladi va imzolanadi hamda ariza kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kun ichida huquq egasiga topshiriladi.

Mazkur tartib talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Samarqand shahar hokimining
2022 yil 7 sentabrdagi
577-7-107-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Samarqand shahar hokimining “Samarqand shahri hududida umumfoydanaluvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport xodisalarini oldini olish maqsadida Samarqand shahar Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli ayrim umumiy o‘rta ta’lim maktablari oldiga sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida”gi qarori loyihasida korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha

CHEKLIST

Yo‘nalishlar	**Korrupsiyaviy omillar**	**Javoblar**				**Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi**
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	So‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi			yo‘q		
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi			yo‘q		
	Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida ziddiyatlarning mavjudligi			yo‘q		
Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Diskretsion vakolatlarning kengligi			yo‘q		
	Aniq belgilanmagan vakolatlar			yo‘q		
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarning mavjudligi			yo‘q		
	Davlat organi tomonidan o‘zining vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi			yo‘q		
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi			yo‘q		
	Kechiktirib tartibga solish			yo‘q		
	Manfaatlar to‘qnashuvi			yo‘q		
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi			yo‘q		
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish			yo‘q		
	Huquq va majburiyatlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar			yo‘q		

Ma’muriy tartib-taomillar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Ma’muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to‘liq emasligi			yo‘q		
	Belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz o‘rnatilishi			yo‘q		
	Ortiqcha va asossiz talablarning o‘rnatilganligi			yo‘q		
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi			yo‘q		
	To‘lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi			yo‘q		
	Sanksiyalarning nomutanosibligi			yo‘q		
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi			yo‘q		
Nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi			yo‘q		
	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi bo‘shliqlar			yo‘q		
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi			yo‘q		